

ALEKSANDR FAYNBERG IJODINING G'OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Olimova Shahina Botirjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda yashab, ijod qilgan o'zbek va rus serqirra ijodkori va taniqli tarjimon Aleksandr Faynberg hayoti va ijod merosi tahlil qilinadi. Maqolada shoir she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, mushohadalari, lirikasi, ramziy obrazlari hamda adabiy merosida muhim o'rin egallagan Vatan, inson, tabiat mavzulari talqini yoritiladi. Shuningdek, Faynberg ijodida sharq va g'arb adabiyotining uyg'unligi, millataro chambarchaslik, adabiyot ixlosmandlari o'rtasida madaniyatlarni bo'g'liqlik masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari Aleksandr Faynberg ijodining zamonaviy adabiyotdagi o'rni va ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Kirish so'zlari: millatlararo uyung'unlik, g'oyaviy-badiiy mushohadalar, lirik tahlil, zamonaviy o'rni va ahamiyati, adabiy meros.

Abstract: This article analyzes the life and creative heritage of Alexander Feinberg, a versatile Uzbek and Russian writer and famous translator who lived and worked in Uzbekistan. The article highlights the ideological and artistic features of the poet's poetry, observations, lyrics, symbolic images, and the interpretation of the themes of the Motherland, man, and nature, which occupy an important place in his literary heritage. Also, special attention is paid to the issues of the harmony of Eastern and Western literature, interethnic closeness, and intercultural communication between literature lovers in Feinberg's work. The results of the study serve to reveal the role and significance of Alexander Feinberg's work in modern literature.

Introductory words: interethnic harmony, ideological and artistic observations, lyrical analysis, modern role and significance, literary heritage

Аннотация: В данной статье анализируется жизнь и творческое наследие Александра Файнберга, разностороннего узбекского и русского писателя и известного переводчика, жившего и работавшего в Узбекистане. В статье освещаются идеологические и художественные особенности поэзии поэта, его наблюдений, лирики, символических образов и интерпретации тем Родины, человека и природы, занимающих важное место в его литературном наследии. Также особое внимание уделяется вопросам гармонии восточной и западной литературы, межэтнической близости и межкультурного общения между любителями литературы в творчестве Файнберга. Результаты исследования позволяют выявить роль и значение творчества Александра Файнберга в современной литературе.

Вводные слова: межэтническая гармония, идеологические и художественные наблюдения, лирический анализ, современная роль и значение, литературное наследие.

KIRISH

Serqirra ijodkor Aleksandr Faynberg 1939-yil 2-noyabrda Toshkent shahrida tavallud topgan. Tug'ilishidan ikki yil avval ota-onasi Novasibirdan ko'chib kelgan. Shoirning otasi Ardabiy Lvovich Faynberg asli Gatchinalik bo'lib, texnologiyalar institutini tamomlab, zavodda bosh muhandis bo'lib ishlagan. Onasi esa Anastatsiya Aleksandrovna Moskvada tug'ilgan va o'sha zavodda mashinist bo'lib ishlagan. Aleksandr maktabni tugatgandan so'ng, Toshkent topografiya texnikumiga o'qishga kirgan. Kollejni tugatib, Tojistonda harbiy xizmatni o'tagan. 1965-yilda Toshkent universitetini tugatib, filologiya fakultetining jurnalistika fakultetining sirtqi bo'limida tahsil olgan va talabalar gazetasida ishlagan. 1961-yilda Inna Glebovna Koval bilan turmush qurgan. Aleksandr Faynberg O'zbekiston yozuvchilar a'zosiga aylandi, 15 dan ortiq she'riy to'plam, 20 ta multfilmlar ssenariysi muallifi sifatida tanildi. She'rlari „Smena“, „Yoshlik“, „Yani dunyo“, „Sharq yulduzi“, „Yangi Volga“ jurnallarida hamda bir qator xorijiy nashrlarda xususan, AQSh, Kanada, Isroilda chop etildi. Faynberg 1965-1969-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyishmasida maslahatchi bo'lgan. „Etyud“, „Soniya“, „She'rlar“, „Olis ko'riklar“, „Ijobat“, „Qisqa to'lqin“, „Yoyma-tor“, „Erkin sonetlar“, va boshqa to'plamlar muallifi. She'riy ijodida rus, Yevropa, Sharq shoirlarining eng yaxshi ijodiy asarlarini rus tiliga tarjima qilgan. Faynberg g'aza mulkning sultoni Alisher Navoiy, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf singari shoirlarning she'r va ijodiy merosini mahorat bilan tarjima qilgan va adabiyot ixlosmandlariga taqdim qilgan.

She'rlari tahlili.

1. „Ona“ sheri. Aleksandr Faynberg ijodida asosan Vatan, ona, tabiat, inson tuyg'ulari ustuvorlik qiladi. Yozuvchining ona she'rining tahlil qiladigan bo'lsak, she'rda shoir o'zing onasiga bo'lgan murojaatini ifoda etgan.

Yashil dala, yam-yashil ochun,

Faqat onam kamlik qiladi.

Mehrim haqin qaytarmoq uchun

Mangulik ham kamlik qiladi.

Ona haqida minglab she'r-u dostonlar bitiladi, ularni e'zozlab qo'shiqchilar qo'shiq kuylaydilar. Aleksandr Faynberg ham o'z she'rini onasiga bag'ishlaydi. Shoir ushbu she'rda yashil dalalar, chiroyli joylarda bo'lsa ham unga onasi, onasining mehri kamlik qilayotganini yozadi. Onasining mehrini, uni tug'ilganidan to hozirgacha mehr berib, oq yuvib, oq taraganining haqqini ado qilish haqida o'ylaydi. Tunlari bedor bo'lib allalagan, o'zi yemay, yedirib, kymay, kiydirgan onasini qanday haqqini ado qilishi mumkin? Inson hayoti davomida unga eng mehribon, yaxshi yo'lboshchi, sodiq do'st, beminnat mehr beruvchi insonlar faqatgina uning ota-onasidir. Ba'zan ularning tanbehlaridan xafa bo'lib, ko'ngilmiz ranjiydi, ammo ular doim bizni o'ylaydilar. Aleksandr Faynbergning „Ona“ she'ri yosh avlodga onalarni vaqtida qadrlash kerak ekanligini bildiruvchi eslatma she'r desak adashmagan bo'lamiz.

2. „Kuz rubobi“ she'ri

Xor bo'laman kuz yongan payti,

Kuz hamrohim, ko'chmanchi, daydi.

Qo'shig'imga jo'r oltin rubob,
Tok qabrida xun to'la sharob.

Kuz fasllar orasida horg'inligi, chiroyliligi bilan ajralib turadi. Ijodkor kuzni hamrohim deb ataydi, kuzni naqadar yaxshi ko'rishi kuz yonganida xor bo'lishi bilan ko'rinadi. Kuzda jamiyki hosillar yig'ib olinadi, xususan, olma, anor, uzumlar g'arq pishadi. Tokning ichidagi uzumlarni shoir go'yoki xun to'la sharobga qiyoslaydi.

Yulduz uchar, barg uchar azon,
Bog'da farrosh supurar xazon.
Kuz navqiron qizdek mastona,
Tilla sochi to'zg'oq, devona.

Kechqurunlari yulduz uchishi, erta tong mahalda barglarning shamolda uchib yurishi she'rda badiiy uslub orqali tasvirlangan. Xazon, barglarning sarg'ayib, daraxtdan to'kilishi tufayli har kuni bog'da farror ularni supurib, o'z qopiga joylaydi. Oxirgi misralarda kuz navqiron, tilla sochli qizga o'xshatiladi. Umuman olganda, she'rda kuz ajoyib tasviriy-badiiy uslubda tasvirlangan, kuzning sochi tillarang qizga o'xshatilishi shoirning mahoratidan darak beradi. Misralarda kuzda yuz beradigan jamiyki holatlar qamrab olingan. Kechqurun yulduz uchishi, xazonlarning supurilishi, barglar uchish shular jumlasidan.

Keyingi she'r ham ushbu she'rning mazmunan davomi desak, adashmagan bo'laman.

3., „Kuz chizgilari“ she'ri tahlili.
Yoz umuman yo'qqa o'xshaydi,
Tumanlarda titraydi g'aram.
Ot-arava ingrab-qaqshaydi,
Sho'x sohillar yetimdek purg'am.

Shoir uchun hayot faqat kuzdan iboratdek, u yozni unutgan. Misralar davomida kuzda bo'ladigan voqea-hodisalar yoritilgan. Kuzda havo ancha salqin bo'lib tuman tushishi, sovuqdan otlarning ingrab-qaqshashi, sohillarning g'amlidek bo'lib qolishi badiiy ifodalangan.

Xo'b eriydi qishloqlar olis,
Dalalarda yog'adi yomg'ir.
Otlar ko'zi kirtaygan mayus,
G'ildiraklar izlari chuqur.

Ko'p yomg'ir yog'ishi natijasida qishloqdagi uylar shalabbo bo'lib, eriydi, otlarning ham ko'zlar yomg'irga mayus boqadi. Yomg'ir yoqqach, hamma joy namlik bilan burkanadi, natijada yerlar loy bo'lib, yumshaydi. Ot-arava yurgan paytida uning g'ildiraklari chuqur botadi, hamda izlari qoladi. She'rda kuzdagi yomg'ir yog'ish pallasi mahorat bilan tasvirlangan.

Xulosa. Aleksandr Faynberg ijodi bilan minglab adabiyot ixlosmandlarining qalbidan joy oldi. Uning yoshligidan adabiyotga, she'riyatga bo'lgan qiziqishining paydo bo'lishida ota-onasining o'rni katta. Yozuvchi o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lish uchun bir nechta oliy o'quv yurtlarida o'qidi, Yozuvchilar uyushmasida faoliyat olib

bordi. She'riy to'plami, tarjimalari orqali xalqlari orasida shuhrat qozondi. Badiiy tarjimalari o'zbek va rus o'quvchilarning o'rtasida iliqlik paydo bo'lishiga, ularning ikki xalq adabiyotiga qiziqishining yanada ortishiga sabab bo'ldi. Yuqorida tahlil qilingan uchta she'r orqali shoir naqadar mahoratli ijodkor ekanligi foydalangan badiiy tasvirlaridan bilsak bo'ladi. Umuman olganda, Aleksandr Faynberg adabiy merosi zamonaviy adabiyotda ham o'ziga xos o'ringa ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Faynberg A. Saylanma she'rlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985.
- 2.Faynberg A. She'rlar va tarjimalar. – Toshkent: Yozuvchi, 1990.
- 3.Faynberg A. Tarjimalar to'plami. – Toshkent: Fan, 1998.
- 4.Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
- 5.Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
- 6.Yo'ldoshev B. O'zbek tarjimachiligi masalalari. – Toshkent: Fan, 2007.
- 7.Rasulov A. She'riyat va zamon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.
- 8.Mirvaliyev S., Sharipov U. O'zbek adabiyoti tarixi. 3-jild. – Toshkent: Fan, 1993.
- 9.Umarov E. Badiiy tarjima nazariyasi. – Toshkent: Universitet, 2005.
- 10.O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 10-jild. – Toshkent: O'zME, 2005.